



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



4/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

4/2025

<b>Qurbonova N.R., Sharipova K.U.</b>	The distinctive features of Mary Poppins by Pamela Lyndon Travers	86
<b>Sohibova Z.N.</b>	Usmon Azim she'riyatida tabiat tasvirining o'ziga xosligi	92
<b>Uralova N.E.</b>	Characteristics of O. Henry's use of metaphors in his short stories as an example of the story "The gift of the Magi"	97
<b>Хакимова Д.М.</b>	Анализ развития персонажа в повести Менглибоя Мурадова «Моя недетская душа»	101
<b>Акифьева О.О.</b>	Зелёный цвет в лирических текстах (на основе сопоставления русских и узбекских лирических произведений)	107
<b>Mirzayev X.T.</b>	XVIII-XIX asrlar fors-tojik aruzshunosligining ayrim masalalari tadqiqi	111
<b>Ruziyeva N.H.</b>	Abdurauf Fitratning "Oila" asari va uning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi	115
<b>Олимов М.Х.</b>	Алишер Навоий ва Бобур - бир асрнинг икки даҳоси	120
<b>NAVOIY GULSHANI</b>		
<b>Bekova N.J., G'ulomova Sh.H.</b>	"Farhod va Shirin" dostonida jum'i gunoh talqini	125
<b>TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ</b>		
<b>Найитов Ш.А.</b>	Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet-german frontida asirga olinganlar va ularning fojiali taqdirlari	128
<b>Савриев Ж.Ф.</b>	Зарафшон воҳаси архитектура ёдгорликларини таъмирлашда жамоатчиликнинг иштироки	132
<b>Ризаев Б.Н.</b>	Советча коллективлаштириш лойиҳаси	139
<b>Ўўлдашев А.А.</b>	Туркистон ўлкаси хайрия ва маърифий жамиятлари молиявий таъминоти (XX аср бошлари)	147
<b>Sodiqova N.N.</b>	Ahmad Zaki Validiy va Buxorodagi sovet hokimiyatiga qarshi istiqloqchilik harakati	152
<b>Qudratov Sh.Y., Sayfiddinov D.R.</b>	Tarixchi olim Dono Ziyayevaning O'zbekiston tarixi faniga qo'shgan hissasi	156



# Navoiy gulshani

## “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA JURMI GUNOH TALQINI

*Bekova Nazora Jo'rayevna,*

*Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

*G'ulomova Shaxinabonu Hakim qizi,*

*Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

*shaxinabonigulomova@gmail.com*

Islomiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib olam va odam to'g'risidagi o'z mulohazalarini yuksak badiiy shaklda namoyon etuvchi Navoiyning barcha asarlari tag zamirida Qur'oni Karim oyatlari va hadislarini talqinini ko'rish mumkin. Xususan, Navoiy dahosining mahsuli bo'lmish “Xamsa” asarining ikkinchi dostoni – “Farhod va Shirin” shunchaki bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz timsoli emas, balki poklanish yo'li bilan komillik sari intilayotgan bir solik haqidadir. Uning tasavvuf yo'li bilan haqiqiy mahbub – o'z yaratuvchisi tomon intilishi ramziy va majoziy shaklda tasvirlangan.

Alisher Navoiy bu dostoni uchun avvalgi xamsanavislarining dostonlarida ikkinchi darajali timsol sifatida talqin qilingan Farhod obrazini bosh qahramon sifatida gavdalantiradi. Sababi shoir bosh obraz sifatida komillikdan yiroq, nafs qutqusiga uchgan Xusravshohni asarida asosiy rol o'ynashini xohlamaydi. Ulug' rus adibi F.M.Dostoyevskiy maktublaridan birida “Telba” romanining yaratilishi haqida aytganidek: “Romandan (ya'ni “Telba”dan) ko'zlangan asosiy maqsad – ijobiy go'zal inson tasvirini yaratmoqdir. Dunyoda bundan qiyini yo'q, ayniqsa, bugun”. Darhaqiqat, boshqa bir yozuvchi knyaz Mishkini Dostoyevskiyga o'xshab yaratilmaganidek, uni muallif timsoli darajasida jonlantirib ham bera olmasdi. Zotan Farhod obrazini Navoiydan o'zga kishi komil inson darajasiga ko'tara olmaydi.

Farhod komil imon yo'lida yovuz kuchlar, zolim shaxslarga duch keladi. Albatta, bu ilohiy visolga yetishishdagi to'siqlar, mashaqqat va sinovlarning ramziy ifodasidir. Shirin esa Farhod uchun imon ko'zgidir. Rasululloh sallolohu alayhi va sallam imon to'g'risida shunday deganlar: “Islom 5 dalil asosiga qurilgan. (Islomdan murod imon demakdir). Iymon so'zda ham, amalda ham bo'lmog'i kerak.” Dalili: Alloh taolo Qur'oni Karimda: “Iymonlarini yanada ziyoda qilsinlar, deb ularga hidoyatimizni ziyoda qildik” va “Olloh taolo hidoyat topgan kishilarning hidoyatini ziyoda qildi va ularga taqvo ato etdi”, – deb aytdi [Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 1-jild. Al-jome' as-sahih. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, -B 6].

Tasavvufni o'zining mafkurasi deb bilgan hazrat Navoiy insonning imoniga bolta uruvchi, uni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi jurmi gunoh talqinini ham asarda berib o'tadi.

**Jurm** (arabcha) – gunoh, jinoyat [Porso Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972, -B 236].

Zero, nafsqa qul bo'lish va uni yenga olmaslik insonni har qanday og'ir gunohlarga boshlaydi. Insondagi barcha yomonliklar undagi nafs tufayli sodir bo'ladi. Shu sababdan ham tasavvuf ilmida nafsqa gunohlarning manbasi deb qaraladi qattiq qoralanadi. Aslini olganda, nafs – bu insonning o'z “men”i. Yunus Emro “Bir men bor, menda mendan ichkari”, degan edi. Inson tirik ekan, o'z nafsidan ayri holda bo'la olmaydi. Nafs deganda yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, kibr-u havo, zulm, ko'ngli torlik, mansabparastlik, g'azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg'aydigan, uni Allohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi tushuniladi. “Nafsning g'alati bir xususiyati bor. Istagi qondirilganda taskin topish o'rniga ishtahasi yanada ochilib, orzulari kuchayib boraveradi. Yegani sayin ochko'zligi, uxlagani sayin dangasaligi ortib, ish qilmay qo'yadi, pul topsa, hirsu ham oshadi, ko'zini tuproq to'ldirgunga qadar to'ymaydi” [Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi (o'zbekchalashtiruvchi Nodirxon Hasan). T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2001]. Xususan, Qur'oni Karimning bir qator oyatlarida nafsni jilovlash, yengish mazmunida bir nechta hukmlar mavjud:

Sizlarga havoyi nafsingiz (yomon) ishni chiroyli qilib ko'rsatgan. Bas, mening ishim chiroyli sabrdir [Qur'oni Karim. Ma'nolarning tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur. – T.: 2018, -B 245].

## NAVOIY GULSHANI

Nafs – insonning juda qudratli, xavfli dushmani. Unga tobe inson esa ma'naviy va jismoniy tubanlikka yuz tutadi. Demak, insonning botinida va zohirida ikki qarama-qarshi kuch bor: iymon va shayton tomonida bo'lib tanlangan shum nafs.

“Farhod va Shirin” dostonida esa bu Farhod va Xusrav, uning o'g'li Sheruya timsollarida ochib berilgan.

Farhod – qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, aqlan va jismonan barkamol obraz. Farhodni biz hech ikkilanmay Navoiyning yetakchi xislat va fazilatlarini mujassam etgan shaxs deya olamiz. Shuningdek, Tangri Farhodga favqulodda iste'dod va tug'ma qobiliyat ham ato etgan:

Uchinchi oy ravon bo'ldi savodi,  
Burung'i yilda Qur'on bo'ldi yodi.  
Agar bir qatla ko'rди har sabaqni,  
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.  
Ne so'znikim o'qub ko'ngliga yozib,  
Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20

tomlik.8-tom.T.: “Fan”,1991, -B. 73].

Asarda Farhodga qarama-qarshi qo'yilgan obraz Xusrav Parvizdir. U Arab va Ajamda shoh sifatida tasvirlansa-da, “va lekin ermas edi loyiqi toj”. Sababi u nafsiga qul bo'lgan, zolimlik va zulmni o'ziga kasb qilib olgan edi. Har bir asarini Qur'oni Karim oyatlarida belgilangan qoidalarga tayanib yozuvchi xassos shoir Xusravni alamli, ya'ni o'z o'g'li qo'lida halok toptiradi. Aytish mumkinki, Allohning yozmishida bundan og'ir gunohlarni qilib yashab yurganlar bor, biroq “Yusuf” surasining 23-oyatida keltirilganidek: “Zolimlar, zotan, najot topmaslar”. Demak, zulmni hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmaydi. Xusrav “alamli azob”ining asl sababi ham mana shudir. Buni asarda keltirilgan quyidagi bayt bilan ham izohlash mumkin:

Ki, Xusrav zulmi haddin oshmish erdi,

Jafosi tund seli toshmish erdi [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20

tomlik.8-tom.T.: “Fan”,1991, -B. 481].

Ishqda zabun, kuchda ojiz, ma'naviyatda tuban bo'lgan Xusrav hiyla yo'li bilan Farhodni halok etadi. Shuni aytish joizki, Farhodni biz yengildi deya olmaymiz, u mashaqqatli, ammo oxiri xayrli bo'lgan iymonga erishdi. Xusravning qazoyi qadari esa o'zining jigarbandi Sheruya qo'lida qoldi. O'g'il qo'lida zavol topish har qanday jazodan-da dahshatliroqdir. Noqobil o'g'il Sheruya esa Shirinning husn-u jamolini ko'rib, unga yetishish maqsadida o'z otasini o'ldirishdan ham toymaydi. Bunga bir qadar ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlarning yaxshi emasligi ham sabab bo'la oladi:

Aning birla atosi tab'i noxush,

Ato tavri dog'i kelmay anga xush.

Ato hargiz o'g'ul ko'ngliga boqmay,

O'g'ulga ham ato af'oli yoqmay [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20

tomlik.8-tom.T.: “Fan”,1991, -B. 480].

Ya'ni u o'g'ildan otaning ko'ngli to'lmaydi, otaning qilmishlari ham o'g'liga sira yoqmasdi. Otasi hech qachon o'g'lining ko'ngliga qaramagani singari o'g'liga ham otasining fe'l-atvori yoqmas edi.

Shunday qilib, o'z hirsiga yengilgan Sheruya o'z otasiga mehri bo'lmagani holda padarkushlikka ahd qiladi:

O'g'ul qatl etgali ohang qildi,

Ato qonig'a tig'in rang qildi [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20 tomlik.8-

tom.T.: “Fan”,1991, -B. 482].

Shayx Abu bakr Abu Barrokning bir hikmatlari bor: “To'rt dushman bordir va ulardan qutilmoqning to'rt yo'li bordir: shayton, nafs, dunyo sevgisi, xalqqa aralashmoq. Shayton va nafsga muxolifat, (qarshilik) etmoq kerak, dunyodan cheklanmoq, xalqdan ham qochmoq kerak. Kishi bu to'rt yordamchi bilan qutulgaydir, yo'qsa halok bo'lur”. Afsuski, nafs bilan shayton biriksa, mana shunday Sheruya kabi oqlab bo'lmas gunoh ishlarni qilishdan hech kimsa toymaydi, hatto bu padarkushlik bo'lsa ham.

Biroq Xusravning o'limida to'laqonli ravishda o'g'lini ayblash ham noo'rin. Buni keyingi bayt orqali izohlash mumkin:

O'g'ul qilmadi oning qasdi jori

Ki, davron istadi Farhod qoni.

Agar Farhodqa zulm etti Xusrav,

Evaz bot ayladi charxi sabukrav [Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT.20

tomlik.8-tom.T.: “Fan”,1991, -B. 482].

Ya'ni o'g'li uning joniga qasd qilmaydi, balki falak shuni xohlaydi. Ehtimol, Sheruya otasining nomaqbul ishlariga javoban Tangri tomonidan yuborilgan jazodir. Xusrav Farhodga jabr-u zulm ko'rsatgani uchun o'zi ulug' bir badbaxtlikka duchor bo'ldi. Demak, bu dunyoda hech bir gunoh javobsiz qolmaydi. Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi va sallam aytganlaridek, "bunday zolimlarga Ollohning la'nati bo'lur" [Abu Abdalloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 2-jild. Al-jome' as-sahih. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997, -B.76].

Navoiyning ijodiy merosini o'rganar ekanmiz, shoir biror-bir asarida o'zi kashf qilgan qahramonni shunchaki, o'zicha o'limga hukm etmaydi. Ya'ni uning dunyoqarashi, e'tiqodi bunga also yo'l qo'ymaydi. Navoiy buyuk insonparvar, komil iymon egasi sifatida barcha badiiy xulosalarini, baholari va hukmlarini Qur'oni Karim, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning aniq ko'rsatmalarisiz qog'ozga tushirmaydi. Bu, albatta, hazrat Navoiyning qat'iy va o'zgarmas mezonidir.